

IJTIMOY TARMOQLARDAGI AXBOROTLARNI TUSHUNISH BORASIDA QIYOSIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Jabbar Alisher Musirmon o'g'li
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Keltirilgan maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni tushunish borasida qiyosiy yondashuvlar tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni idrok etishda shaxsning gerменевtik xususiyatlariga ham e'tibor berilgan. Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni idrok etishda subyektning psixologik o'ziga xosliklari zamonaviy kiberpsixologik yondashuvlar orqali ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, idrok etish, axborot, qiyosiy yondashuv, xususiyat.

АНАЛИЗ СРАВНИТЕЛЬНЫХ ПОДХОДОВ К ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Жаббар Алишер Мусирмон угли
Доктор философии в области психологии (PhD)

Аннотация. В цитируемой статье представлен анализ сравнительных подходов к пониманию информации в социальных сетях. Также обращено внимание на герменевтические особенности личности при восприятии информации в социальных сетях. Психологические особенности восприятия субъектом информации в социальных сетях также анализируются с помощью современных киберпсихологических подходов.

Ключевые слова: социальные сети, восприятие, информация, сравнительный подход, характеристика.

ANALYSIS OF COMPARATIVE APPROACHES TO UNDERSTANDING INFORMATION IN SOCIAL NETWORKS

Jabbar Alisher Musirmon ugli
Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)

Abstract. The cited article presents an analysis of comparative approaches to understanding information in social networks. Attention is also drawn to the hermeneutical characteristics of the individual when perceiving information on social networks. Psychological peculiarities of the subject in the perception of information on social networks are also analyzed through modern cyber-psychological approaches.

Keywords: social networks, perception, information, comparative approach, characteristics.

Kirish. Hozirgi vaqtga kelib, dunyo miqyosida, son-sanoqsiz odamlar internet tarmog'i xizmatlaridan keng ko'lamda foydalanmoqdalar, o'zaro axborotlar almashib, o'z bilimlarini oshirmoqdalar, shu bilan birga, turli hayotiy, kasbiy, masalalarni zudlik bilan hal qilmoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, yoshidan, qaysi ijtimoiy guruh yoki qatlamga mansubligidan qat'iy nazar, internetdan foydalanuvchilarning soni kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, voyaga yetmagan yoshlar guruhi sonining ortib borayotganligi bunga yaqqol misoldir. Shu bois ham, virtual olam ta'siridan yoshlarni himoyalash, ularning zamonaviy axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish, inson ongiga ta'sir etuvchi salbiy axborot oqimining o'ziga xosliklarini ilmiy o'rganish, virtual olamga tobe bo'lishning psixologik, pedagogik sabab va oqibatlarini aniqlashtirish, shuningdek, virtual olamga bog'lanib qolishning salbiy oqibatlari yuzasidan, ta'lim muassasalarida keng qamrovli tashviqot ishlarini olib borish, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar turkumidan biridir.

N.A.Nosovanning ta'rificha, virtual olam vositalari – bu yangi axborot texnologiyalari, axborot qidiruv va uzatish tizimlari, shubhasiz, yaqin kelajakda mutlaq erkinlik darajasiga yetadi. Ushbu keng ko'lamli axborot tuzilmalari bilan bir qatorda, unga aloqador yana bir tizim – virtual olam ta'siri ham yanada ortadi. Virtual olam – bu insonga ko'rish, eshitish, hidlash,

teginish va boshqa hislar orqali taqdim etilgan texnik vositalar yordamida yaratilgan dunyodir deb ta'kidlaydi E.D.Nevesenkoi. Virtual olamning ta'siri o'smirlar xulqida "simulyatsiya" reaksiyasi sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni bu o'smirlarning virtual olam hodisalariga taqlid qilishi yoki ularni o'zlashtirish bilan yakun topadi [1; 38].

Ayrim ilmiy manbalarda yozilishicha, virtual olam – bu axborot texnologiyalari orqali, insonlarning xohishiga ko'ra, vaqt-makon muhitini o'zgartirish orqali shakllanadigan, yangi sun'iy illyuziyali olamdir. I.A.Nikolaevning yozishicha, mazkur "olam" mazmunida inson o'z haqiqiy dunyosiga o'xshash yoki undan juda farq qiluvchi ko'plab taqlid qilinadigan tajribalarni boshdan kechirishi mumkin. Virtual olam vositalari o'yin-kulgi (ayniqsa, video o'yinlar), ta'lim va o'qitish (til o'rganish, ta'lim olish) va biznes masalalari (masalan, virtual uchrashuvlar, yangi loyihalar) kabilarni o'z ichiga olgan texnologik majmualar to'plamidir [2; 100-131].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Web-canape" statistik saytida keltirilishicha, hozirgi kunda dunyo aholisining 56,4 foizi ochiq axborot tizimlaridan turli maqsadlarda foydalanishadi. Jumladan, 2021 yilning yanvar holatiga ko'ra, dunyodagi jami aholining (7,83 mlrd.) 66,6 %i mobil aloqadan, 59,5 %i internetdan va shuningdek 53,6 %i ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, butunjahon pandemiya sharoitida ularning aksariyati, ayniqsa, yoshlar o'zlarining asosiy vaqtlarini ochiq axborot tizimlariga sarflashmoqda. Internetdan foydalanish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori natijani qayd etgan mamlakatlar reytingida dastlabki o'rinni Filippin (10 s. 56 daq.) oxirini AQSh (7 s. 11 daq.) tashkil etgan. Quyi natijani esa, avvaliga Vetnam (6 s. 47 daq.) va oxirini Yaponiya (4 s. 25 daq.) mamlakatlari qayd etishgan [3; 251-253].

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihtotalanib olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin.

Hattoki, xalqlararo tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir ko'pincha salbiy bo'ladi. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlichadir. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas.

Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi [4; 55-76].

Internet tarmog'i ham, kashf qilingan har qanday fan yutuqlari singari o'zining ijobiy va salbiy jihatlariga ega. Global tarmoqning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati taboro ortib borayotganligi, insoniyat uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini asoslashga hojat yo'q. Xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlarni virtual olam orqali o'z ta'sirlarini o'tkazishga harakat qilishlari ham tabiiy holat. Qachonki hamma davlatlar terrorizm havfini, xalqaro, hududiy va milliy xavfsizlik va barqarorlikka, umuman insoniyatga fojeali global havfni tushunib, birgalikda harakat qilganlaridagina yaxshiroq natijalarga erishilgan bo'lardi.

Muhokama va natijalar. XXI asr tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha sohalariga va inson faoliyatiga kirib borishi axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. Mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlar ehtiyojining ortib borishi yaqqol sezilmoqda. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi bosqichdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarining biri bo'la oladi. Axborot sohasining tez

sur'atlar bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishiga va kishilar hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirishga olib keldi.

Tig'iz axborotlashgan jamiyatda "shaxs-jamiyat-davlat" aloqadorligi, ularning o'zaro uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash birmuncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgani va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazarini, o'z qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib o'ziga mos axborotni qabul qiladi, uni tahlil etadi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi va ana shu tahlillar asosida o'zining shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada u yoki bu tarzdagi o'z nuqtai nazarini shakllantiradi. Demak, har bir axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan "shaxs-jamiyat-davlat" mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarini asrash rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning roli juda muhim.

Hozirgi dunyo taraqqiyotining qonuniyatlari va globallashtirish jarayonlarining tahlili dunyo shaxsiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar bo'lishidan darak beruvchi "global axborot jamiyati" ostonasida turganligini ko'rsatmoqda. Bu ham axborot makonidan va OAVlaridan turli kuchlarning siyosiy va nosiyosiy vazifalarni hal qilish uchun odatda tushuniladigan "kuch ishlatish" yo'li bilan emas, balki boshqacha yo'l bilan foydalanishga imkon beradi.

Axborot jamiyati – postindustrial jamiyat kontseptsiyasi; sivilizatsiya rivojlanishining yangi tarixiy bosqichi bo'lib, unda axborot va bilim ishlab chiqarishning bosh mahsullari hisoblanadi. Axborot jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari:

- jamiyat hayotida axborot va bilimlar rolining ortishi;
- yalpi ichki mahsulotda axborot kommunikatsiyalari, mahsullari va xizmatlari ulushining ko'payishi;

- quyidagilarni ta'minlovchi global axborot maydonining yaratilishi: a) odamlar samarali informatsion o'zaro aloqa qilishini; b) ular jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishini; v) ularning axborot mahsullari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari qondirilishini.

1-jadval

**Kibertaxdidlardan saqlanish va shaxsning o'z-o'ziga munosabatini
baholashni o'rganish so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik
(K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti mezonini bo'yicha)**

Shkalalar	Kibermadaniyatlarga umumiy qaramlik	Virtual olamga qaramlikga moyillik	Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik	Televizorga qaramlik	Kompyuter o' yinlariga qaramlik	Internetga qaramlik
O'z-o'zini ayblash	0,446*	0,689**	0,549**	0,637**	0,329	0,479*
O'z-o'zini idora qilish	0,478*	0,295	0,472*	0,563**	0,317	0,462
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	0,480*	0,547**	0,473*	0,459*	0,579**	0,521**
O'z-o'zini qadrlash	0,463*	0,569**	0,591**	0,220	0,438*	0,562*
O'z-o'zini qabul qilish	0,280	0,545**	0,240	0,539**	0,463*	0,541**
Ichki ziddiyat	0,468*	0,482*	0,549**	0,309	0,658**	0,421*
O'z-o'ziga ishonch	0,531*	0,684**	0,260	0,431*	0,539**	0,329

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Sinaluvchilardaijtimoiytarmoqlardagi axborotlarnitushunishningpsixologikdeterminantlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'z-o'ziga munosabatini baholash va kiberxavfsizlikdan himoyalaniшни aniqlashga qaratilgan so'rovnoma shkalalari ya'ni o'zini o'zi ayblash shkalasi kibermadaniyatlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini idora qilish shkalasi kibermadaniyatlarga umumiy qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'ziga munosabatning aks etishi shkalasi kibermadaniyatlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini qadrlash shkalasi kibermadaniyatlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini qabul qilish shkalasi virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, ichki ziddiyat shkalasi kibermadaniyatlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'ziga ishonch shkalasi virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik shkalalari bilan musbat darajada korrelyatsiyalarni hosil qilgan.

2-jadval

**Kibertaxdidlardan saqlanish va shaxs himoya mexanizmlarini o'rganish
so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (K.Pirsonning r-
korrelyatsiya koeffitsienti mezonini bo'yicha)**

Shkalalar	Kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik	Virtual olamga qaramlikga moyillik	Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik	Televizorga qaramlik	Kompyuter o'yinlariga qaramlik	Internetga qaramlik
Siqib chiqarish	0,137	0,576**	0,320	0,579**	0,548**	0,329
Regressiya	0,458*	0,480*	0,476*	0,675**	0,264	0,532**
O'rnini to'ldirish	0,163	0,439*	0,549**	0,637**	0,430	0,310
Rad etish	0,559**	0,483*	0,240	0,561**	0,457*	0,639**
Proeksiya	0,449*	0,636**	0,130	0,470*	0,458*	0,368
Kompensatsiya	0,539**	0,472*	0,580**	0,569**	0,639**	0,424**
Giperkompensatsiya	0,580**	0,659**	0,558**	0,294	0,687**	0,529**
Ratsionalizatsiya	0,519**	0,264	0,479*	0,634**	0,210	0,529**

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Kibertaxdidlardan saqlanish va shaxs himoya mexanizmlarini o'rganish so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik jihatlari quyidagilarda siqib chiqarish shkalasi virtual olamga qaramlikga moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik shkalalari bilan, regressiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'rnini to'ldirish shkalasi virtual virtual olamga umumiy qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik shkalalari bilan, rad etish shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, proeksiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, kompensatsiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, giperekompensatsiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, ratsionalizatsiya shkalasi kibermadaniyatlariga umumiy qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan aloqaga kirishganligi ma'lum bo'ldi.

Zero, axborotlashgan jamiyatning inson hayotidagi o'rni va roli hamda shu asosda shaxsning ijtimoiylashuv-siyosiyashuviga bo'lgan ta'siri bilan belgilanadi. Xususan, axborot oqimining kuchayuvi, uning son va sifat jihatidan xabarning tez va aniq uzatilishi shaxsning onggi va qalbi orqali o'tmoqda. Bu esa o'z-o'zidan har bir axborot, tarqatilayotgan turli-tuman xabarlarining shaxs ong va tafakkuriga ta'siri bilan o'lchanadi. Ushbu axborotning shaxsiga qanday ta'sir etishi eng avvalo uning bilim darajasi (ommaviy, ilmiy, kundalik ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy), dunyoqarashi hamda dunyoni his etishi idrok etishi bilan belgilanadi. "Bugun biz

demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida soʻz yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini taʼminlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar oʻz fikr va gʻoyalarini, sodir boʻlayotgan voqealarga oʻz munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib boʻlmashligini oʻzimizga yaxshi tasavvur etamiz”. Shaxs dunyoqarashiga axborotning taʼsir kuchi eng avvalo axborotni uzatilishi, qabul qilinishi ongda qayta ishlanishi hamda maʼlum bir xulosa qilinishi bilan amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan axborot olish va uni oʻzlashtirish modelini ishlab chiqqan frantsiyalik olim J.Dyuran aynan inson omiliga eʼtibor qaratadi. Uning fikricha kommunikatsiya tizimining asosini tashkil qiluvchi inson axborotni qabul qilib oluvchi obyekt sifatida besh bosqichni boshidan kechiradi. “Birinchii bosqich – axborot bilan ilk toʻqnashuv bosqichi boʻlib, bu bosqichda retsipient individ u yoki bu harakat amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik haqida qaror qabul qiladi.

Xulosa. Axborotlashgan jamiyatda axborot ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarishni siqib chiqarmaydi, balki uning ustida quriladi va moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki beradi. Tabiiyki, bu jarayon shaxsning ong-shuuriga taʼsir etish barobarida unga oʻzining axborotning mazmun-mohiyatiga boʻlgan munosabatni ham oʻzgartiradi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Бабаева Ю. Д., Войскунский А. Е. Одаренный ребенок за компьютером. М., 2003.
2. Войскунский А. Е. Феномен зависимости от Интернета // Гуманитарные исследования в Интернете / Под ред. А. Е. Войскунского. М., 2000. С. 100 - 131.
3. Войскунский А. Е. Психологические исследования феномена Интернет- аддикции // Тезисы докладов 2-й Российской конференции по экологической психологии. М.: Экопсицентр РОСС, 2000. С. 251-253.
4. Арестова О.Н., Бабанин Л.Н., Войскунский А.Е. Мотивация пользователей // Гуманитарные исследования в Интернете – под ред. А.Е.Войскунского М.: Терра-Можайск. 2000. – С.55-76